



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**



TASHQI SAVDO AYLANMASI

✓ Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.


2023- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3277,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 285,9 mln. AQSh dollariga yoki 9,6 %ga ko‘paygan.






TSAda eksport hajmi 1084,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 92,3 %) va import hajmi 2193,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 120,7 %) yetdi. Hisobot davrida -1109,2 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-iyulga nisbatan, %da)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-iyul, mln.AQSH dollari)



Eksport-254,2
Import-545,6



Eksport-259,7
Import-423,7



Eksport-61,0
Import-479,7



Eksport-196,2
Import-96,2



Eksport-0,0
Import-159,1



Eksport-5,7
Import-66,5



Eksport-13,7
Import-56,9




Eksport-13,2
Import-44,6



Eksport-26,2
Import-29,9



Eksport-23,1
Import-6,2



Eksport-12,6
Import-12,6




Eksport-11,0
Import-5,6



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,1 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 103,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-iyul oylarida 55,9 %ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,3 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,0 %ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI
VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI
(2023- yil yanvar-iyul, % hisobida)**




TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI



MDH davlatlaridan Tojikiston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul)



Hozirgi kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2023-yil yanvar-iyul oyi yakuni bilan 1084,0 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 92,3 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (64,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,3 %), turli xil tayyor buyumlar (13,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (2,8 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,9 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,8 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar-iyul)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1084,0	433,8	650,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	122,8	69,6	53,2	11,3	16,0	8,2
Ichimliklar va tamaki	5,0	4,6	0,4	0,5	1,1	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	30,6	11,0	19,6	2,8	2,5	3,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	3,8	1,1	2,7	0,4	0,3	0,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	0,1	0,5	0,1	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	42,2	36,6	5,6	3,9	8,4	0,9
Sanoat tovarlari	695,0	160,9	534,1	64,1	37,1	82,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	30,5	16,5	14,0	2,8	3,8	2,2
Turli xil tayyor buyumlar	150,7	132,2	18,5	13,8	30,5	2,8
Xizmatlar	2,8	1,2	1,6	0,3	0,3	0,2




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar-iyul)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	92,3	101,3	87,2
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	115,3	126,9	102,9
Ichimliklar va tamaki	2,3 m.	2,2 m.	4,7 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	71,4	46,3	102,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	152,1	2,1 m.	135,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	41,7	27,6	43,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	95,3	109,9	51,1
Sanoat tovarlari	84,2	88,9	82,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	90,8	69,2	143,3
Turli xil tayyor buyumlar	134,9	123,2	4,2 m.
Xizmatlar	91,1	90,6	91,6

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 867,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 80,1 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 82,4 mln. dollar qiymatga ega 149,7 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 29,2 %ga ko'paygan, naturada – 47,7 %ga ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 45,9 mln. AQSh dollariga teng 110,6 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 49,3 %ga ko'paygan), shuningdek 25,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 24,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 39,8 %ga ko'paygan).

2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
24,5 ming tonna
25,8 mln.
AQSH dollari



Uzum
6,9 ming tonna
7,5 mln.
AQSH dollari



Yeryong'oqlar
0,14 ming tonna
0,25 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar
110,6 ming tonna
45,9 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 71,7 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 6,6 %ini tashkil qiladi.


TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-iyul)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyul oylari mobaynida import hajmi 2193,2 mln. AQSh dollari (2022- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 20,7 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (29,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,7 %), sanoat tovarlari (16,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar-iyul)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2193,2	1010,5	1182,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	391,5	182,2	209,3	17,9	18,0	17,7
Ichimliklar va tamaki	3,7	3,3	0,4	0,2	0,3	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	321,7	266,9	54,8	14,7	26,4	4,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	164,4	160,2	4,2	7,5	15,8	0,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	41,9	32,7	9,2	1,9	3,2	0,87
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	220,6	53,3	167,3	10,1	5,3	14,1
Sanoat tovarlari	357,5	223,1	134,4	16,2	22,1	11,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	638,1	77,3	560,8	29,1	7,8	47,4
Turli xil tayyor buyumlar	50,3	9,9	40,4	2,3	1,0	3,4
Boshqa tovarlar	0,6	0,4	0,2	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	2,9	1,2	1,7	0,1	0,1	0,1




Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (26,4 %) va sanoat tovarlari (20,3 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (47,4 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI
(2023- yil yanvar-iyul, % hisobida)**

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	120,7	104,3	139,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	100,8	104,9	97,4
Ichimliklar va tamaki	136,0	124,6	6,9 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	91,2	80,3	2,7 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	2,8 m.	2,8 m.	3,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	118,0	97,9	4,4 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	109,8	90,2	118,0
Sanoat tovarlari	98,3	85,6	130,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	185,6	2,1 m.	182,8
Turli xil tayyor buyumlar	77,8	93,2	74,8
Boshqa tovarlar	33,1	21,2	66,8 m.
Xizmatlar	56,5	104,9	42,7

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar- iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Belorussiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1815,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,8 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59